

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT

Lingvistika

2022 Vol. 2 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Lingvistika

2022 Vol. 2 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Zulxumor Xolmanova, Manzura Shamsiyeva

Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati6

Ahmet Erdem

Misafir ve misafirperverlik kavramlari ile ilgili o'zbek atasozlari
uzerine bir inceleme.....14

Tuncer Gulensoy

Kokturkler'in buyuk veziri "Tonyukuk boyla бага tarkan" in adi
uzerine yazılanlar ve yeni bir gorush.....29

Tanju Oral Seyhan

Alisir Nevayi'nin eserlerinin oguzcaya aktarimi.....37

Manzura Abjalova, Xursandoy Geldiyeva

O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes
sohadagi neologizmlar.....47

Sabohat Bozorova, Ibodat Bozorova

Gazeta tilini o'rganish aspektlari.....63

Saodat Israilova

"Ko'k" leksemasining etimologik tavsifi.....75

Kamola Rixsiyeva

O'zbek xalq maqollaridagi "qap" asosli birliklarning semantik tahlili.....87

Iqbol O'razova

"Suhayl va Guldursun" dostonida qo'llangan frazemalar statistikasi.....96

Feruza Murodxodjayeva

So'z va so'z birikmalari semantikasining kognitiv xususiyatlari
va ularning tarjimadagi ifodasi.....104

Nodir G'afforov

O'zbek tilining umumiy lug'atlarida sport terminlarining ifodalanishi...118

LINGVISTIKA
LINGUISTICS

Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati

Zulxumor Xolmanova¹
Manzura Shamsiyeva²

Abstrakt

Bugungi kunda “ikki tilli shaxsning nutq faoliyatida tilga oid va ensiklopedik bilimlarning o‘zaro ta’siri qay tarzda amalga oshishi, ularning xotirasida qanday tashkil etilganligi” va “ular qaysi til orqali o‘zlashtirilgani hamda qaysi til orqali uzatilishi kerakligi”ni tushuntira oladigan tildan foydalanishning yaxlit jarayonini modellash tirish va integral tipdagi nazariyani ishlab chiqish tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi. Maqolada bilingvizmni shakllantirishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *bilingvizm, bola nutqi, grammatik xatolar, ona tili, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari.*

Kirish

Bilingvizm va ko‘p tillilikka bo‘lgan munosabat turlicha bo‘lib, o‘tmishda ham, hozirda ham jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, shuningdek, davlatning til siyosati jarayonlari sifatida belgilanadi. Dunyoda XX asr o‘rtalaridan boshlab bolalar bilingvizmiga bo‘lgan munosabat, uning shakllanishiga nisbatan qiziqish kuzatila boshlandi, so‘nggi yillarda esa aholining turli qatlamlarida bu fenomenga nisbatan ijobiy munosabat doimiy ravishda oshib bormoqda. Bugungi kunda xorij davlatlarida bilingvizm va ko‘p tillilikning shakllanishiga tillar va madaniyatlarni saqlab qolish imkoniyati sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda ham qadimdan turli millat vakillarining hamjihatlikda yashab kelganliklari natijasida bilingvizm hodisasi yuzaga kelgan. Ikki tillilik haqida Alisher Navoi-

¹Xolmanova Zulxumor Turdiyevna – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: zulxumor@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8236-4267

²Manzura Shamsiyeva Bababekovna – O‘zMU tayanch doktoranti.

E-mail: vasiya06@mail.ru

Iqtibos uchun: Xolmanova, Z. T., Shamsiyeva M.B. 2022. “Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 2 (1): 6-13.

yning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida quyidagilarni o‘qiyimiz: “...turkning ulug‘din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidin bahramanddurlar, andoqkim o‘z xirad ahvoliga ko‘ra ayta olurlar, balki ba‘zi fasohat va balog‘at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash‘or va shirin guftor zohir qilurlar. Ammo sort ulusining arzolidin ashrofig‘acha va omiysidin donishmandig‘acha hech qaysi turk tili bila takallum qila olmaslar va takallum qilg‘onning ma‘nisi ham bilmaslar. Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o‘rganib so‘zki aytsa ham, har kishi esh-itsa bilur va aning sort ekanin fahm qilur”. Ya’ni turkning kattadan kichigigacha, xizmatkoridan begigacha sart tilidan bahramanddirlar. Shundayki, o‘z tirikchiliklariga oid ahvollar ustida so‘zlasha olurlar, balki ba‘zilari adabiy ravishda so‘zlasha olurlar. Hattoki turk shoir-lari forsi tilida rangdor she‘rlar va shirin hikoyalar yuzaga chiqara olurlar. Ammo sart xalqining quyi tabaqasidan yuqori tabaqalariga-cha, savodsizidan bilimdonigacha hech qaysisi turk tilida so‘zlasha olmaydi va so‘zlaganning so‘ziga ham tushunolmaydi. Agar yuzdan, balki mingdan biri bu tilni o‘rganib so‘zlasha boshlasa, eshitgan kishi bilib qoladi — uning sart ekanini tushunib oladi...” [Навойй 1940, 54]. Bundan turkiylar fors tilini keng qo‘llaganliklari, tilni o‘z tili sohiblariniki kabi egallaganliklari, nutqida erkin qo‘llaganliklari, sart (fors)lar nutqida esa interferensiya hodisasi kuchli bo‘lganligi anglashiladi.

Muntazam boshqa tilli mamlakatda yashovchi monoetnik oilalarda mahalliy tilni izchil qo‘llash kattalarning ham, bolalarning ham muloqotida ona tilini saqlab qolish imkonini beradi. Immigrant oilalarning bolalari ko‘pincha jamiyat tilida faoliyat yuritadigan maktablarda o‘qiydi, chunki boshqa davlatlarda kerakli tillar kombinatsiyasidagi bilingval maktabni topish mushkul. Bunday sharoitda bolalar o‘z ona tilini tezda unutib qo‘yishlari mumkin. Hozirgi kunda nafaqat immigrant oilalarda, balki o‘z yurtida yashab kelayotgan oilalarda ham bu holatni kuzatish mumkin. Bola chet tilini o‘zlashtirish uchun u bilan deyarli har doim yot tilda muloqot qilinadi. Muammo shundaki, ona tilini rad etish bolaning o‘z rivojlanishida bir necha yil orqaga ketishiga olib keladi, ona tilining tirgagi bilan esa u yangi tilni muayyan lingvistik tajribaga ega bo‘lgan holda o‘zlashtiradi. Shuning uchun zamonaviy bilingvologlar ona tilining rolini kuchaytirishni tavsiya qilishadi.

Fan-texnika sohasidagina emas, kundalik hayotda ham chet so‘zlarini bo‘lar-bo‘lmasga ishlatish M. Lomonosovning g‘ashini keltirar edi (olimning o‘zi 30 ta tilni bilgan). Masalan, u rus dvoryanlarining fransuzcha chala-chulpa gapirishlarini sira ham xushlamas edi. Keraksiz chet so‘zlar, deydi olim, milliy madaniyatning sog‘lom rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi, tilni buzadi, “bizga sezdirmay

kirib kelib, tilimizning o'z go'zalligini noto'g'ri ko'rsatadi, doimiy ravishda o'zgartiradi va tushkunlikka olib keladi" [Коровушкин 2013, 20-22]. Shu sababli tilning sofliigi haqida g'amxo'rlik qilishga chorlaydi. Darhaqiqat, tilshunos olim Gumboldt ta'kidlaganidek, "til – millatning ruhi" ekan, bolaga bir tilni o'rgatish uchun uni o'z ona tili, millatidan mahrum qilish yaramaydi, chunki bolaning tili qaysi tilda chiqsa, o'sha til u uchun ona tili hisoblanadi. Har qanday holatda ham bilingvizmni shakllantirish milliy tilni unutish darajasida bo'lmasligi, aksincha u rivojlantirilishi lozim.

Boshlang'ich sinf bolalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning nutqiy qobiliyatlari hali jadal rivojlanish bosqichida bo'ladi. Bu yoshda bola juda ko'p so'zlarni, klishelarni, taqlid yo'li bilan tilning talaffuz xususiyatlarini eslab qoladi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ixtiyoriy diqqat va xotiraning mantiqiy, hissiy-obrazli, assotsiativ va kinestetik (motor) kabi turlari yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Aksariyat xotira turlari o'quv jarayonida rolli o'yinlar, tanlovlar, viktorinalar yoki vizualizatsiya, musiqa yoki jismoniy tarbiya yordamida mashq qilish jarayonida faollashadi. Ushbu yosh bolalarining afzalligi shundaki, ular materialni butun blok sifatida eslab qoladilar. Bilingv tomonidan yangi material ortiqcha urinishlarsiz o'zlashtiriladi. Ta'limning ushbu bosqichida bolalarda uzoq muddatli xotira yaxshi rivojlangan bo'ladi, biroq operativ xotira haqida bunday deya olmaymiz. Xorijiy til mashg'ulotlari jarayonida bolalarning operativ xotira hajmi kengayadi, ixtiyoriy diqqat, olingan ma'lumotni tahlil qilish qobiliyati yuzaga keladi, suhbatdosh nutqini idrok etish qobiliyati, iltimos, murojaat, kechirim so'rashda muqobil so'zlarni nutqida qo'llash kabi verbal xulq stereotiplari ishlab chiqiladi. Biroq boshlang'ich sinf bolalarining kommunikativ ehtiyojlari juda chegaralangan.

Psixolingvistika nuqtai nazaridan bolalarda nutq faoliyatining turli jihatlari shakllanishini tahlil qilish maktabgacha bolalik davrida bog'lanishli nutqni rivojlantirish muammosi bilan bevosita bog'liq. Maktabgacha davrda bolaning kattalar va boshqa bolalar bilan muloqot vositasi sifatidagi nutqi o'ziga xos tasviriy muloqot vaziyati bilan bevosita bog'liq. Dialogik shaklda amalga oshirilib, aniq vaziyatli (nutqiy muloqot vaziyatidan kelib chiqqan holdagi) xarakterga ega bo'ladi. Maktab yoshiga o'tish, yangi faoliyat, kattalar bilan yangi munosabatlar paydo bo'lishi bilan nutqning vazifalari va shakllari farqlanishi kuzatiladi. Bolada hikoya-monolog shaklidagi ma'lumot nutqi paydo bo'ladi. Mustaqil amaliy faoliyat rivojlanishi bilan bolada o'z rejasini shakllantirish, amaliy harakatlarni bajarish usullari haqida mulohaza yuritish zarurati tug'iladi. Nutqiy kontekst – bog'lanishli kontekst nutqidan tushunarli bo'ladigan nutqqa ehtiyoj tug'iladi. Nutqning bu shakliga o'tish, avvalo, kengaygan ifodalarning grammatik shakllarini o'zlashtirish bilan belgilanadi. Shu bilan

birga, dialogik nutq shaklining mazmuni jihatidan ham, bolaning til imkoniyatlari ortib borishi, faolligi va jonli nutqiy muloqot jarayonida ishtirok etish darajasi jihatidan ham yanada murakkablashish kuzatiladi. 7-9 yoshli bolalarning ifodasi yetarlicha kengaygan va informativ xususiyatga ega bo'ladi, ularda fikrning muayyan mantiqi mavjud. Ko'pincha ularning hikoyalarida fantaziya elementlari uchraydi, hayot tajribasida hali uchramagan epizodlarni o'ylab topish istagi paydo bo'ladi. Olimlarning fikrlariga ko'ra, tashqi "egotsentrik" nutqdan ichki nutqqa o'tish me'yorda 4-5 yoshga to'g'ri keladi. Nutq taraqqiyotining maktab davrida izchil nutq rivojlanishi davom etadi. Bolalar ongli ravishda erkin ifodalarni shakllantirishning grammatik qoidalarini egallay boshlaydi, tovush tahlili va sintezini to'la o'zlashtiradi. Bu davrda yozma nutq shakllanadi.

Lug'at zaxirasi boyishi nafaqat narsani ifodalovchi otlar hisobiga, balki narsalarning alohida elementlari nomlari, fe'llar, bundan tashqari bola nutqida faol qo'llaydigan so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar yordamida shakllangan so'zlar hisobiga amalga oshadi. Bolaning nutqida jamlovchi otlar, narsaning xususiyati, holatini anglatuvchi sifatlar tobora ko'proq kuzatila boshlaydi. Bir yilda so'zlar zaxirasi 1000-1200 tagacha oshib boradi, zero ushbu yosh davrida o'zlashtirilgan so'zlarning aniq miqdorini aytish mushkul. Aksariyat so'zlar passiv zaxiradan faol lug'atga o'tadi. Lug'atini tekshirish uchun bolaning zid ma'noli so'zlarni tanlay olish qobiliyati – otlar (old-orqa), sifat (keng-tor), ravish (tez-sekin), fe'l (bormoq-qaytmoq); otlarga sifatlarni tanlash (Qanday quyoncha? – Oppoq, chiroyli, mitti, quvnoq, do'mboq), fe'llarga ravish va ravishdoshlarni tanlash (Bolalar qanday o'qiydi? – Tez, sekin, shoshib, tutilib), ma'nodosh so'zlarni tanlashi (so'zlamog, gapirmog, aytmog, demog)ni tekshirib ko'rish mumkin.

Gap tuzish nafaqat sodda gaplar, balki qo'shma gaplar hisobiga ham kengayadi, ifodalar hajmi oshadi. Maktabgacha yoshdagi bolalardan farqli ravishda so'zlarni biriktirish, kelishiklarni qo'llashda xato qo'llash holatlari kamayadi; ko'plik shakldagi turlangan so'zlarni to'g'ri qo'llay oladilar (bolalarni, koptoklarda, maktablarga). Ular ot va boshqa so'z turkumlarini qo'shimchalar yordamida shakllantira oladi (kitob yozadi – yozuvchi, maktabda o'qiydi – o'quvchi, gul rasmi tushirilgan mato – gulli, yumshagan holva - yumshog).

Biroq bola nutqida hamon grammatik xatolar uchraydi: egalik (asosan, 2-shaxs va 1-shaxs ko'plik egalik qo'shimchalari bilan bog'liq), chiqish va o'rin-payt kelishigini almashtirib qo'llash, shaxs-son qo'shimchalari.

Bolaning nutqidagi grammatik aniqlik kattalarning bola nutqidagi xatolarga qay darajada ahamiyat berishi, ularni to'g'rilashi, so'z yoki gapning to'g'ri variantini berib borishlari bilan bog'liq

bo'ladi.

Dialogik nutqda bola savol va suhbat mavzusiga muvofiq tarzda qisqa hamda to'liq javoblardan foydalanadi. Bu davrda monologik nutq yaxshilanadi. Ular kattalarning yordamisiz ertaklar, hikoya, multiplikatsion filmlarning mazmunini so'zlab bera oladi, o'zi guvohi bo'lgan voqea-hodisalarni aytib beradi. O'z nutqining tushunarli bo'lishi uchun bola katta mamnuniyat bilan hikoyasining detallarini tushuntiradi, uning qismlarini alohida ta'kidlaydi. Ular faqat bir necha kun oldin bo'lgan voqeani emas, balki ancha oldin ro'y bergan hodisalar (masalan, yozda yoki qishda oilasi bilan tog'ga dam olgani borgan, bahorda varrak uchirgani, hovuzda cho'milgani va h.k.)ni ham gapirib bera oladi.

Rasmlarda ifodalangan narsalar, voqea-hodisalar mazmunini so'zlab bera oladi. Biroq rasm bo'yicha hikoya tuzishda u hamon asosiy detallarga e'tibor qaratadi, ikkinchi darajali, kam ahamiyatlarini ko'pincha tushirib qoldiradi.

Bu davrda artikulyatsion apparat mushaklari yaxshi mustahkamlangan bo'ladi va bolalar ona tili tovushlarini aniq talaffuz qila oladilar. Biroq ba'zi bolalarda sirg'aluvchi tovushlar [sh, z, l, r] ni to'g'ri qo'llash hali nihoyasiga yetmagan bo'ladi. Bilingval bolalarda esa rus tilida mavjud bo'lmagan, o'zbek tili tovush tizimiga xos bo'lgan unli va undoshlarni qo'llash murakkablik tug'diradi.

Muloqotda bola tengdoshlari bilan tovush balandligini muvofiq tarzda qo'llash, zaruriyat bo'lganda baland va past ovozda gapirish, ya'ni ovoz balandligini tinglovchi masofasigacha yetib borishini nazarda tutib, vaziyatga qarab so'zlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Kundalik muloqotda bolalar muvofiq tempni ushlay oladi, biroq rasmga qarab hikoya qilib berishda tutilish, pauzalar hisobiga ularning nutqi ko'pincha sekinlashadi. Biroq tomosha qilingan film, o'qilgan ertak ta'sirida bo'lgan bola so'zlab berish jarayonida o'z nutqini nazorat qilish holatida bo'lmaydi va odatdagidan balandroq, tezroq gapiradi.

Namunaga asoslangan holda bolalar she'rlarni intonatsiya bilan, ifodali yod oladilar. Bu holat asosan bilingval bolalarda kuzatiladi: ular so'roq, xabar intonatsiyasini aniq qo'llaydilar; turli predmet va hodisalarga nisbatan o'z munosabatlarini ifodalay oladilar (quvonch, xafalik, norozilik va b.).

Nafas olish va chiqarish uzayadi, shu tariqa, bir nafas (4-8 sekund)da bolalar [a, u] tovushlarini talaffuz qila oladilar. Shunga qaramasdan, barcha bolalar ham tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaydilar: ba'zilarida tovushlarni noto'g'ri shakllantirish, ba'zilarida tovushlarni o'zlashtirishdagi kechikish bo'lishi mumkin (r, f, sh, s). Bola nutqining aniqligi, tushunarliliigi uning gapirish teziligiga bog'liq bo'ladi. Tez, shoshib gapiradigan bolalarning nutqi, odatda, yaxshi bo'lmaydi. Umuman olganda, bu davrda bola

nutqiy rivojlanishda yetarlicha yuqori darajaga yetadi va nutqiy kompetensiyaga erishadi. Ona tili tovushlarini to'g'ri talaffuz qiladi, ifodasi mazmunli, aniq bo'ladi, so'zlarni dona-dona qilib ifoda etadi, erkin muloqot uchun yetarli lug'at zaxirasiga ega bo'ladi, ko'plab grammatik shakllarni to'g'ri qo'llaydi. Bolalarda to'g'ri nutq rivojlanishining asosiy ko'rsatkichi uning nutqdan ongli ravishda foydalanishi bilan belgilanadi.

Tashqi nutq – muloqot vositasi, ichki nutq fikrlash vositasi sifatida asosiy rol o'ynaydi. Ichki nutq muloqot funksiyasini bajarmaydi, balki muayyan shaxsning fikrlash tarziga xizmat qiladi. U o'z tuzilishga ko'ra qisqa, gapning ikkinchi darajali bo'laklari qatnashmaydi. Bolalarda ichki nutq tashqi nutq asosida paydo bo'ladi va fikrlashning asosiy mexanizmlaridan birini o'zida aks ettiradi.

Bola nutqi rivojlanishi – bu murakkab, ko'p qirrali va uzoq jarayondir. Bolalar leksik-grammatik tuzilish, so'z o'zgarishlari, so'z yasalishlari, tovush talaffuzi va bo'g'in tarkibini birdaniga o'zlashtirmaydi. Til belgilarining ba'zi guruhlari oldinroq, ba'zilari so'ngroq o'zlashtiriladi. Shu sababli bolalar nutqi rivojlanishining turli bosqichlarida tilning ba'zi elementlari o'zlashtirilgan, ba'zilari esa qisman o'zlashtirilgan bo'ladi. Bunda nutqning fonetik tuzilishi o'zlashtirilishi ona tilining leksik-grammatik tuzilishi shakllanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Aksariyat olimlarning ta'kidlashicha, normal rivojlanayotgan bolada til o'zlashtirish spontan, tabiiy va alohida harakatlarsiz kechadi. Bolalarda til va nutqning shakllanish xususiyatlari markaziy asab tizimining fiziologik kamolotga erishish jarayoni va uning muayyan plastikliги bilan bog'liq. Nutqni o'zlashtirishni ta'minlovchi psixofiziologik tizimlarning normal shakllanishi, o'z navbatida, ularning nutqiy signallarga nisbatan o'z vaqtidagi stimulyatsiyasini talab qiladi. Bunday stimulyatsiyaning yetishmasligi sababli (masalan, eshitish qobiliyatining buzilishi bilan bog'liq ravishda) nutqni o'zlashtirish jarayonlari kechikadi. "Alohida harakatlarsiz" o'zlashtiriladigan nutq yosh davri psixologiyasida "inqiroz davri" deb yuritiladi. Inqiroz davri davomiyligi tadqiqotchilar tomonidan turlicha belgilanadi. Bunda ko'pincha ikki variant ajratiladi: tug'ilganidan – 9-11 yoshgacha va ikki yoshdan – o'smirlik davrigacha.

Ta'kidlash joizki, 1 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davrda til va nutq shakllanishining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi yaxshi kechadi – bu davrda individual artikulyatsiyaning "nome'yoriy" xususiyatlari bartaraf etiladi, bola antonimlarni to'g'ri qo'llashni o'rganadi, aniq va ijtimoiy-psixologik mazmunga ega bo'lgan ko'p ma'noli so'z va iboralarni tushuna boshlaydi. Ushbu yosh davrida

nutq rivojlanishidagi turli og'ishlar, xususan, duduqlik bilan bog'liq kamchiliklar kuzatiladi.

Ko'pchilik olimlar "Maugli-bolalar" deb nomlanadigan bolalarni (insoniyat sotsiumidan tashqarida rivojlangan bolalar), agar ular 6-7 yoshdan katta bo'lmasa, qiyinchiliklarsiz jamiyatga qaytishi mumkinligiga ishonishadi. Bu yosh davri psixolingvistikada ona tilini o'zlashtirish imkoniyatlari uchun qiyin bosqich sanaladi. Shu bilan birga, bolaning insoniy muloqotdan mahrum bo'lgan yoshi va bu ijtimoiy-til deprivatsiyasi (boshqa odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatidan mahrum bo'lish) yuz bergan vaqt va har qanday jarohatlar (jismoniy, psixologik, ijtimoiy) yoki intellektual rivojlanish buzilishining mavjudligi ham muhim o'rin tutadi.

Ona tili – bu "tug'ma" til emas (bunday bo'lishi ham mumkin emas: bir millatga mansub bolalarning boshqa millat oilasida tarbiya topganligi va boshidan o'sha oila tilida so'zlasha boshlagan holatlar ko'plab tavsiflangan). Ona tili ota-onalarning tili ham emas (aralash tilli oilalar ham ko'p). Ona tili – bu bola birinchi so'zlarini aytgan tildir. 5-6 yoshda bola ona tilining murakkab tuzilishini o'zlashtiradi.

Tadqiqot natijalari va ular asosida shakllantirilgan umumiy xulosalar quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif etish imkonini bermoqda:

1. Bilingvizmni shakllantirish uchun eng qulay variant bola tug'ilganidan boshlab u bilan ikki tilda muloqot qilishdir. Ikkinchi tilni o'zlashtirishni boshlagan yosh ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

2. Bolani harakatlari uchun maqtash, unga dalda berish kerak. Oila til o'rganishga ham tormoz bo'lishi, ham bolaning motivatsiyasini oshirishi mumkin.

3. Tabiiy bilingvizmni shakllantirishda ikki tilning bir xil me'yorda qo'llanishiga alohida e'tibor berish lozim.

4. Ikkinchi tilni ona tilidan ustun qo'yilmasligiga e'tibor qaratish kerak. Chet tilini o'rganish – yot ma'naviy olamga kirishdir. Til – millatning ruhi ekan, bolaga bir tilni o'rgatish uchun uni o'z ona tili, millatidan mahrum qilish yaramaydi, chunki bolaning tili qaysi tilda chiqsa, o'sha til u uchun ona tili hisoblanadi.

5. Oila a'zolari (kamida bittasi) bolaga o'rgatmoqchi bo'lgan ikkinchi tilni yaxshi bilishi kerak.

Adabiyotlar

Алишер Навоий. 1940. *Муҳокаматул-луғатайн*. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. Тошкент.

Коровушкин, П. В. 2013. "Проблемы формирования детского билингвизма в моноэтнической семье". *Филология и культурология: современные проблемы и перспективы развития. Материалы 2-й международной научно-практической конференции*: 20-22. Москва.

The importance of mother tongue in the formation of bilingualism in children

Zulkhumor Kholmanova¹

Manzura Shamsieva²

Abstract

To date, the focus of the researchers is on modeling the holistic process of language use and the development of the theory of the integral type, which can understand “how the interaction of linguistic and encyclopedic knowledge in the speech activity of a bilingual person takes place, how it is organized in their memory” and “through which language they are mastered. The article gives an idea of the aspects that should be considered when forming bilinguism.

Key words: *bilinguism, child speech, grammatical errors, mother tongue, pupils of primary classes.*

References

Alisher Navoi. 1940. *Muhokamatul-lug'atayn*. Prepared by P.Shamsiev, 54. Tashkent.

Коровушкин, П. В. 2013. “Проблемы формирования детского билингвизма в моноэтнической семье”. *Филология и культурология: современные проблемы и перспективы развития. Материалы 2-й международной научно-практической конференции*: 20-22. Москва.

¹*Zulkhumor T. Kholmanova* – Doctor of Sciences in Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-mail: zulkumor@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8236-4267

²*Manzura B. Shamsieva* – Basic Doctoral Student, National University of Uzbekistan.

E-mail: vasiya06@mail.ru

For citation: Kholmanova, Z.T., Shamsieva M.B. 2022. “The importance of mother tongue in the formation of bilingualism in children”. *Uzbekistan: Language and Culture* 2 (1): 6–13.